

OMMAVIY OFERTA
"Pullik raqamli televideniya xizmat ko'rsatish SHARTNOMASI"

"Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi" MCHJ ("RRTM" MCHJ) O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalarini va kommunikatsiyalarini rivojlantirish Vazirligi tomonidan 01.01.2021 yilda berilgan №1338571-sonli Litsenziya asosida va Ustav asosida harakat qiluvchi, pullik raqamli yer usti televideniya xizmatini ko'rsatuvchi Provyayder, matnda bundan buyon **"Provyayder"** deb nomlanadi, mazkur shartnoma shartlari asosida kodlangan yer usti raqamli televideniye telekanallar paketlaridan foydalanish xizmatini taqdim etadi, matnda bundan buyon **"Xizmatlar"** deb nomlanadi.

Abonent mazkur ommaviy ofertaning shartlarini biror bir o'zgartirishsiz va/yoki cheklovsiz to'liq va shartsiz aksept qilganda qaydlov varaqasiga imzo qo'yishi kerak, shu bilan ommaviy oferta shartnomasining barcha shartlarini qabul qilganligini tasdiqlaydi, shu jumladan avtomatik tarzda o'rnatilgan telekanallar paketi muvofiq xizmatlariga oldindan to'lov qilish sharti bilan taqdim etiladi.

Agar Siz Shartnoma shartlarini to'liq hajmda qabul qilmasangiz, iltimos o'z roziligingizni bildirmang va Xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirmang.

Siz ushbu Shartnomaning shartlarini to'liq va shartsiz qabul qilganingizni bildiradigan harakatdan boshlab, ushbu Shartnomaning barcha shartlarini to'liq qabul qilganingiz (aksept) deb hisoblanadi. Bu Siz Xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirganingiz va to'lovni tasdiqlovchi moliyaviy hujjatni olganingizdan boshlab kuchga kiradi. Mazkur Shartnoma shartlarini qabul qilgan Abonent, Provyayder bilan Xizmatlarni taqdim etishga ommaviy oferta shartnomasini tuzgan shaxs sifatida ko'riladi.

1. ASOSIY TUSHUNCHA VA ATAMALAR

1.1. Provyayder – "RRTM" MCHJ, raqamli televideniye operatori tarmog'i orqali tijorat asosida yer usti raqamli televideniye xizmatlarini taqdim etuvchi yuridik shaxs.

1.2. Abonent – Provyayder bilan mazkur Shartnomani tuzgan, Xizmatlar haqqini to'lagan va mazkur Shartnoma bilan belgilangan shartlar asosida Xizmatlardan foydalanish huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxs.

1.3. DVB-T/T2 – Yer usti raqamli efir uzatish standarti (Digital Video Broadcasting Terrestrial).

1.4. Abonent uskunasi – Provyayder tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaratish uchun Abonentda o'rnatiladigan, O'zbekiston Respublikasida amal qiluvchi texnik reglamentlar va standartlarga muvofiq, uskunaning ushbu turiga qo'yiladigan texnik talablar hamda Provyayderning shartli foydalanish tizimining talablariga muvofiq bo'lgan texnik vosita yoki ularning majmuasi.

Abonent uskunasi Abonent tomonidan sotib olinadi, uning mulki hisoblanadi va tegishli ravishda o'rnatilgan bo'lishi shart. Abonent uskunalariga quyidagilar kiradi:

1.4.1. Sarflanadigan materiallar – koaksial kabel RG-6 (75 Om), shteker, konnektor, DMT diapazonli antenna.

1.4.2. Set-Top-Box (STB) – raqamli televideniye signalini qabul qiluvchi va uni dekodlovchi qurilma, televizion qabul qilgich (qo'shimcha moslama).

1.4.3. CAM-modul – ichiga o'rnatilgan DVB-T/T2 tyunerli televizorlarda raqamli televideniye pullik paketlariga kirish uchun zarur moslama.

1.4.4. Smart-karta – Abonentni individuallashtirish va unga Xizmatlardan foydalanish huquqini berish imkoniyatini yaratuvchi mikroprotessor o'rnatilgan elektron karta.

1.5. Xizmatlar – qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda Kelishuv asosida raqamli televideniye telekanallarining pullik paketlariga kirish imkoniyatini taqdim etish.

1.6. Qo'shimcha xizmatlar – Abonent uskunalarini montaj qilish, sozlash va xizmat ko'rsatish bo'yicha pullik xizmatlar, qo'shimcha telekanallar paketi hamda tasdiqlangan ro'yxat va tariflar bo'yicha Abonentga ko'rsatiladigan boshqa pullik xizmatlar.

1.7. Telekanallar paketi (asosiy) – Provyayder tomonidan o'rnatilgan va unga kirish mazkur Kelishuv shartlari asosida amalga oshiriladigan, Abonent tomonidan tanlangan telekanallar to'plami.

1.8. Qo'shimcha telekanallar paketi – Asosiy bo'lmagan va asosiy telekanallar paketiga to'lovsiz taqdim etilmaydigan, Provyayder tomonidan o'tkaziladigan aksiyalar va telekanallarni sinovdan o'tkazish doirasida avtomatik tarzda ulanadigan hamda keyinchalik yoqish yoki o'chirish imkoni bo'lgan telekanallar to'plami.

1.9. Ulanish – Abonentni individuallashtirish va shartli kartasiz (smart-kartasiz) ishlaydigan abonent uskunalaridan foydalangan taqdirda, unga Provyayder xizmatlaridan foydalanish huquqini beruvchi xizmat.

1.10. Sayt – www.uzdtv.uz; www.crrt.uz manzilida joylashgan, Provyayderning Internet tarmog'idagi rasmiy sayti.

1.11. Shaxsiy kabinet – Abonentning Provyayder saytida joylashtirilgan va Abonentga taqdim etiladigan xizmatlar haqida ma'lumot beruvchi, kirish maxfiy ma'lumotlar bilan (login va parol) himoyalangan maxsus qismi.

1.12. Faollashtirish (yoqish) – Abonent uskunalarini Provyayder xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini yaratish uchun faol holatga keltirish.

1.13. Nofaollashtirish (o'chirish) – faollashtirishga teskari bo'lgan jarayon.

1.14. Shaxsiy hisob raqam – Abonentga berilgan, Provyayderning AHKTSida yozilgan takrorlanmas raqam. U Abonentning buyurilgan va taqdim etilgan xizmatlar uchun hisob-kitoblari tarixini va joriy holatini aks ettiradi. Ushbu raqam Abonentning identifikatsiya raqami – "ID" hisoblanadi.

1.15. Xizmatlar amal qilish muddati – Abonent tomonidan to'langan kalendar davri, u xizmatlar taqdim etiladigan oylar bilan hisoblanadi.

1.16. Raqamli televideniye xizmatlari taqdim etiladigan hudud (matnda bundan buyon **"Hudud"** deb ataladi) – texnika me'yorlariga javob beradigan televideniye signali qabul qilinadigan O'zbekiston Respublikasi hududi.

1.17. Call-Center – Abonentga axborot-maslahat va texnik yordam taqdim etish xizmati (+99878) 1299000, 1065.

1.18. Provyayderning javobgarlik zonasi – Abonentning qabul qiluvchi antenasidan boshlab raqamli signal qabul qiluvchi moslamagacha (STB/CAM-modul) taqdim etilgan signal sifati hamda Provyayder xizmatlarini boshqarish uchun ishlatayotgan uskunalar.

1.19. Abonentning javobgarlik zonasi – Abonent uskunalari hamda Abonent egalik qiluvchi yoki foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxsiy identifikatsion ma'lumotlar (shaxsiy hisob raqam, shaxsiy kabinetdan foydalanish uchun login va parol).

1.20. Avtomatlashtirilgan Hisob-Kitob Tizimi (AHKT) – Abonentlarni avtomatlashtirilgan holatda hisobga olish, ularning shaxsiy hisob raqamlari holatini, abonent to'lovlarini hisoblash va xizmatlarni avtomatik ravishda boshqarish imkoniyatini beruvchi dasturiy vositalar majmuasi.

1.21. Abonent to'lovi – Provyayder tomonidan Abonentga taqdim etilayotgan asosiy va/yoki qo'shimcha telekanallar paketi uchun har oylik tarif to'lovi.

1.22. O'ferta – Provyayderning har qanday jismoniy shaxsga u bilan mazkur O'ferta keltirilgan shartlarda Kelishuv tuzishga taklifi.

1.23. Aksept – Abonentning shaxsiy hisob raqamiga Provyayder xizmatlari (ulanish va abonent to'lovi) uchun haq to'lash orqali amalga oshirilgan joriy Ommaviy O'ferta shartnomasining Abonent tomonidan to'liq qabul qilinishi.

1.24. Operator – mulk huquqi yoki boshqa mulkiy huquqlar asosida raqamli televideniye tarmog'iga ega bo'lgan, uning ishlashini, rivojlanishini ta'minlovchi va raqamli televideniye xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs.

1.25. Ro'yxatga olish shakli (blank) – Provyayder tomonidan belgilangan namunadagi shakl (blank), shartnomaning ajralmas qismi bo'lib, Abonent shartnoma shartlari bilan tanishganligini va ularni to'liq hamda so'zsiz qabul qilganligini tasdiqlovchi hujjatdir. Ro'yxatga olish blanki Abonent haqidagi ma'lumotlarni, Abonent tomonidan tanlangan dastlabki telekanallar to'plami va shartnomaning boshqa muhim shartlarini o'z ichiga oladi. Ro'yxatga olish shakli (blank) tomonlar tomonidan faqat Provyayderning rasmiy savdo va xizmat ko'rsatish idoralari tuziladi va imzolaniadi.

1.26. Foydalanuvchi – Provyayder bilan shartnoma tuzmagan, ochiq tele- va radiokanallarni qabul qiluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

1.27. Tovar belgisi - Provyayder xizmatlar ko'rsatadigan "UZDIGITAL TV" tovar belgisi.

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Provyayder abonentga telekanallarning kodlangan asosiy va/yoki qo'shimcha telekanallar paketiga kirish bo'yicha xizmatlarni hamda qo'shimcha xizmatlarni taqdim etadi.

2.2. Abonent asosiy va/yoki qo'shimcha telekanallar paketini tomosha qilishi bilan bog'liq barcha xatarlarni o'z zimmasiga oladi, jumladan, ko'rish rejimlariga, yoshga oid cheklavlarga, ruhiy holatga va boshqa omillarga rioya qilish majburiyatini oladi. Shuningdek, u Provyayderning aybsiz holda ehtimoliy xatoliklar, texnik uzilishlar yoki ko'rsatuvlarda texnologik tanaffuslar yuzaga kelishi mumkinligini tan oladi va bunga rozilik bildiradi.

2.3. Abonent tomonidan xizmatlar uchun to'lov (ulanish va abonent to'lovi) amalga oshirilgan taqdirda, shartnoma har ikki tomon tomonidan qabul qilingan hisoblanadi.

3. XIZMATLARNI TAQDIM ETISH SHARTLARI

3.1. Provyayder, abonent yer usti raqamli televideniye (RTV) tarmog'iga ulangan taqdirda, abonent uskunalaridan foydalangan holda xizmatlarni taqdim etadi.

3.2. Xizmatlar faqat Hududda va Abonentning shaxsiy hisob raqamida pul mablag'lari mavjud bo'lganda hamda Abonent tomonidan mazkur Kelishuv shartlariga rioya qilinishi sharti bilan taqdim etiladi.

4. XIZMATLAR QIYMATI VA TO'LOV TARTIBI

4.1. Abonent to'lovi, qo'shimcha xizmatlar va sarflanadigan materiallar Provyayder tomonidan tasdiqlangan tariflarga muvofiq belgilanadi.

4.2. Tafarlar Provyayder xizmati, Qo'shimcha xizmatlar va Sarflanadigan materiallarni tasdiqlangan ro'yxat va tariflar bo'yicha taqdim etishga kelishdilar. Amaldagi tariflar Provyayder ofisi va/yoki Saytida ko'rsatilgan.

4.3. Xizmat va Qo'shimcha xizmatlarning tariflarini o'zgartirish Provyayder tomonidan bir tomonlama amalga oshiriladi, Abonentni ogohlantirish sharti mazkur Shartnomaning 4.11-bandiga muvofiq bajariladi.

4.4. Mazkur Shartnoma bo'yicha barcha to'lovlar O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – SO'Mda amalga oshiriladi.

4.5. Abonent to'lovi Abonent mazkur Shartnomani aksept qilgan kundan boshlab hisoblanadi.

4.6. Har oylik abonent to'lovi keyingi oy boshlanishidan kechikmasdan besh (5) kun oldin 100% oldindan to'lanadi. Abonent to'lovi 1 (bir) oydan ortiq muddat uchun to'lanishi mumkin. Bunda, har bir kalendar oyning birinchi sanasida, Abonentning Shaxsiy hisob raqamida mavjud pul mablag'lari joriy kalendar oy uchun abonent to'loviga teng miqdorda kamayib boradi. Abonentning Shaxsiy hisob raqamida pul mablag'lari mavjud bo'lmasa, Xizmat ko'rsatish to'xtatiladi.

4.7. Abonent Provyayder Xizmatlari uchun 3 (uch) kalendar oyidan ortiq muddat ichida to'lovni amalga oshirmasa, pul mablag'lari Abonentning Shaxsiy hisob raqamiga tushgandan so'ng Xizmat Provyayderning AHKTda avtomatik tarzda faollashtiriladi. Abonent to'lovi pul mablag'lari tushgan sanasidan qat'iy nazar to'liq joriy kalendar oy uchun yechiladi.

4.8. Abonent Provyayder Xizmatlaridan foydalanish uchun 3 (uch) kalendar oyidan ortiq muddat ichida to'lovni amalga oshirmagan (Abonentda Provyayder oldida qarzdorlik mavjud emasligi sharti bilan) va Provyayderga 5.4.6-bandga muvofiq Xizmatlardan foydalanmayotganligi to'g'risida Provyayder nomiga ariza bilan murojaat qilmagan bo'lsa, Abonent Xizmatlardan foydalanish va faollashtirish bilan bog'liq bo'lgan to'lovlar, oylik abonent to'lovi faollashtirilgan kundagi tariflar bo'yicha to'laydi. Bunda Abonent to'lovi, Xizmatni faollashtirish sanasidan boshlab yechib olinadi.

4.9. Abonent uning Shaxsiy hisob raqamida mavjud pul mablag'lari haqida ma'lumotni Provyayder ofisida, Call-Center va/yoki Shaxsiy kabinet orqali olishi mumkin.

4.10. Qo'shimcha xizmatlar va/yoki Sarflanadigan materiallar uchun to'lov, ular taqdim etilgan sanadan boshlab Abonentning Shaxsiy hisob raqamidan pul mablag'larini yechish yo'li bilan to'lanadi. Qo'shimcha xizmatlar taqdim etilishi Qo'shimcha kelishuvni tuzmasdan, Abonentning ijobiy balansi mavjudligida taqdim etiladi. Bajarilgan Qo'shimcha xizmatlar, Sarflanadigan materiallar hajmi schyot-fakturasida, bajarilgan ishlar dalolatnomasida, qabul qilib olish va berish aktida ko'rsatiladi, ular mazkur Shartnomaning ajralmas qismi deb hisoblanadi.

4.11. Tariflarning o'zgarishi ular Provyayder Saytida va/yoki "chopar satr" orqali joylashtirilganidan so'ng 15(o'n besh) kunda kuchga kiradi, bunda Abonent kiritilgan o'zgarishlar haqida tegishli tarzda va o'z vaqtida ogohlantirilgan hisoblanadi. Abonent tariflar o'zgarishi bilan rozi bo'lmagan taqdirda, mazkur Shartnomaning 8.2-bandiga muvofiq Shartnomani bekor qilishi mumkin. Abonentning yozma arizasi mavjud emasligi uning o'zgarishlarga roziligini bildiradi va Provyayder Xizmatlari uchun yangi tariflar bo'yicha to'lovni amalga oshirish uchun asos bo'ladi.

4.12. Abonent pul mablag'larini noto'g'ri Shaxsiy hisob raqamiga o'tkazib yuborgan bo'lsa, yechishdan so'ng qolgan pul mablag'lari Abonentning Provyayder nomiga yozma arizasi asosida uning hisob raqamiga o'tkaziladi, arizaga to'lovni tasdiqlovchi hujjat ilova qilingan bo'lishi shart. Noto'g'ri Shaxsiy raqamga o'tkazilgan va ariza topshirilgan paytda yechilgan pul mablag'lari qaytarilmaydi.

4.13. Harid qilingan Abonent qurilmalari, sarf materiallari, buyurtma qilingan qo'shimcha xizmatlari uchun Provyayderning rasmiy savdo va xizmat ko'rsatish idoralarida to'lovlarni amalga oshirish va ro'yxatga olish tartibi:

4.13.1. Abonent qurilmalari va/yoki sarf materiallar, shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan hisob-faktura orqali rasmiylashtiriladi;

4.13.2. Qo'shimcha xizmatlar, shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan bajarilgan ishlar dalolatnomasi orqali kiritiladi. Abonent tomonidan buyurtma qilingan qo'shimcha xizmatlar uchun to'lovlar ariza yuborilgan va ro'yxatga olingan kundan 100% oldindan to'lov amalga oshirilganda rasmiylashtiriladi;

4.13.3. Abonent qurilmalari va sarf materiallari uchun bir martalik to'lovlar, abonent tomonidan ro'yxatga olish shakli (blank), hisob-faktura va qabul qilish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab 100% oldindan to'lov amalga oshirilganda rasmiylashtiriladi.

4.13.4. Provyayderning ofislarida sotib olingan Abonent qurilmalari va/yoki sarf materiallari ro'yxatga olish shakli (blank), hisob-faktura va qabul qilish dalolatnomasi Abonent tomonidan imzolangan kundan boshlab uning shaxsiy mulkiga aylanadi.

4.14. Abonent qurilmasi Provyayder ofislarida xarid qilingan taqdirda, telekanallar to'plami Abonent tomonidan mustaqil ravishda tanlanadi.

4.15. Abonent qurilmasi Provyayder distribyutori orqali xarid qilingan taqdirda, telekanallar to'plami avtomatik tarzda hududda mavjud bo'lgan maksimal telekanallar paketiga mos o'rnatiladi. Bunday holatda, Abonent o'rnatilgan telekanallar to'plamini, Shartnomaning 5.4.5-bandiga muvofiq o'zgartirishi mumkin.

4.16. Reklama aksiyalari doirasida Provyayder tomonidan hisoblangan bonuslar, keshbek ko'rinishida Abonentga taqdim etilgan barcha pul mablag'lari Abonent tomonidan faqat Provyayder xizmatlariga haq to'lash uchun ishlatilishi mumkin va Shartnoma bekor qilinganda pul shaklida to'lanmaydi va qaytarilmaydi.

5. TARAFLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

5.1. Provyayder majburiyatlari:

5.1.1. Xizmat sifatini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'rish;

5.1.2. Abonent uskunalarini o'rnatish, talabnoma kelib tushgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida, Abonent mazkur Shartnomaning 4-bo'limiga muvofiq to'lovni amalga oshirganidan so'ng o'rnatiladi. Talabnomani bajarish muddati, Abonent va Provyayderga bog'liq bo'lmagan vaziyatlar vujudga kelgan taqdirda, Provyayder tomonidan uzaytirilishi mumkin.

5.1.3. Abonent tomonidan tanlangan telekanallar paketiga asosan Xizmatlarni taqdim etish, mazkur Shartnomaning 7-bo'limida keltirilgan holatlar bundan istisno.

5.1.4. Provyayder Xizmatlar sifati keskin yomonlashsa, Abonentdan talabnoma kelib tushgandan so'ng 5 (besh) ish kuni ichida nosozliklarni bartaraf etish, mazkur Shartnomaning 6.5-bandi va 7-bo'limida keltirilgan holatlar bundan istisno. Talabnomani bajarish muddati, Abonent va Provyayderga bog'liq bo'lmagan holatlar vujudga kelgan taqdirda, Provyayder tomonidan uzaytirilishi mumkin.

5.1.5. Abonent talabiga asosan uning Shaxsiy hisob raqamida aks ettirilgan hisob-kitoblar holati to'g'risida to'liq ma'lumotlarni taqdim etish.

5.1.6. Abonentga Xizmatlarni taqdim etish tartibi haqida batafsil ma'lumotni Provyayderning ofislarida, Sayt yoki Call-Center orqali taqdim etish.

5.1.7. Texnik zaruriyatlar bo'yicha (profilaktika ishlarini bajarish) Xizmat ko'rsatilishi vaqtincha to'xtatilgan taqdirda, tegishli ma'lumotni Saytda va/yoki "chopar satr"da joylashtirish yo'li bilan Abonentni kamida bir sutka avval ogohlantirish. Abonent bunday ma'lumotni Provyayderga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra olmasa, Provyayder Abonent o'z vaqtida ogohlantirilmagani uchun javobgar bo'lmaydi va bu munosabat bilan e'tirozlar qabul qilinmaydi.

5.1.8. Provyayder aybi bilan Xizmatlar ko'rsatilmagan taqdirda, Abonent murojaati bo'yicha Provyayder manziliga yozma ariza topshirilgan kundan boshlab, Abonent to'lovni qayta hisoblash.

5.1.9. To'lovni o'z vaqtida to'lamaganligi uchun to'xtatilgan Xizmatlarni ko'rsatilishini bir sutka ichida, Abonent tomonidan kiritilgan mablag'lar to'langanligi tasdiqlovchi hujjat Provyayderga taqdim qilinganidan so'ng amalga oshirish.

5.1.10. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ko'rib chiqish.

5.1.11 Provyayder Abonentning shaxsiy ma'lumotlaridan faqat uni identifikatsiya qilish va ushbu Shartnoma shartlarini bajarish maqsadida, shuningdek, pul mablag'larini Abonentga qaytarish uchun foydalanish majburiyatini oladi.

5.2. Provyayder huquqlari:

5.2.1. Huquq egalari, operator, vakolatli organning qarorlari, manbadan signalni qabul qilishning texnik imkoniyati yo'qligi yoki Provyayderga bog'liq bo'lmagan boshqa holatlar tufayli yuzaga kelgan holatlardan tashqari, Vakolatli organ tomonidan Hududda translatsiya qilishga ruxsat etilgan telekanallar paketlari ro'yxatidan u yoki bu telekanallarni, televizion dasturlarni chiqarib tashlash yoki qo'shish orqali asosiy va/yoki qo'shimcha telekanallar paketi tarkibini Abonentni xabardor qilgan holda o'zgartirish.

5.2.2. Abonentning Shaxsiy hisob raqamida pul mablag'lari yetmagan taqdirda yoki Abonentda Qo'shimcha xizmatlar va Sarflanadigan materiallar uchun to'lov bo'yicha qarzdorlik vujudga kelsa, Xizmatlarni ko'rsatishni to'xtatib qo'yish.

5.2.3. Uskunalarini o'rnatish uchun texnik yoki boshqa sharoit bo'lmasa, Xizmatlarni ko'rsatilishini rad etish, bunda Abonentdan olingan to'lov mazkur Shartnomaning 8.5-bandiga muvofiq qaytariladi.

5.3. Abonent majburiyatlari:

5.3.1. Belgilangan texnik talablarga muvofiq Abonent uskunalaridan foydalanish va ularni saqlash tartibiga to'liq javob berish.

5.3.2. Abonent uskunalari ishdan chiqsa, darhol Proвайderga yozma ravishda xabar berish. Faqat shundagina Abonent yozma murojaat qilgan sanasidan Abonent uskunalari tiklash sanasigacha Abonent to'lovi qayta hisoblanadi.

5.3.3. Mazkur Shartnoma shartlarini aksept qilishdan oldin, shartlarni o'rganib chiqish va rozilik bildirgan taqdirda aksept qilish.

5.3.4. Abonent uskunalari mavjud ma'lumotlardan nusxa ko'chirmaslik, o'zgartirmaslik yoki boshqa usulda undan foydalanmaslik. Ma'lumotlarni ruxsatsiz ishlatish man etiladi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

5.3.5. Xizmat va Qo'shimcha xizmatlar uchun mazkur Shartnomada nazarda tutilgan shart va tartibda o'z vaqtida va to'liq to'lovni amalga oshirish.

5.3.6. Proвайder xodimlariga, ular xizmat guvohnomasini yoki ruxsatnomasini taqdim etganidan so'ng, Abonentni Xizmatlarga ulash uchun Abonent uskunalari o'rnatiladigan xonalar yoki joylarga kirish imkoniyatini taqdim etish.

5.3.7. Xizmatlardan foydalanishda vujudga kelgan muammolar haqida, shu jumladan televideniye signali yo'qolganligi haqida darhol Call-Centerga qo'ng'iroq qilib yoki Proвайder ofisiga murojaat qilib, Proвайderga xabar berish.

5.3.8. Abonent ma'lumotlarini (shaxsiy hisob raqami va abonent uskunasi seriya raqami) aniqlash uchun, Abonent Proвайderning xodimiga shaxsiy hisob raqami va abonent uskunasi seriya raqamini, yoki ushbu Shartnomaga o'zgartirish kiritish uchun shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi shart.

5.3.9 Ushbu Ommaviy taklif shartlari, yangi axborot xabarlarini, Xizmatlar tariflaridagi o'zgarishlar, Qo'shimcha xizmatlar ro'yxati, Xizmatlarni o'chirish, profilaktika ishlari va boshqalar bilan o'z vaqtida tanishish uchun Proвайder veb-sayti/Shaxsiy kabinetga muntazam ravishda, lekin haftada kamida bir marta tashrif buyurish.

Proвайderga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra, Abonent tomonidan ushbu bandning bajarilmasligi, Abonentdan javobgarlikni olib tashlamaydi. Abonent tegishli tarzda xabardor qilingan deb hisoblanadi va Proвайder bu bo'yicha e'tirozlarni qabul qilmaydi.

5.3.10. Ommaviy namoyish, keyinchalik namoyish qilish uchun ko'rsatuvlarni yozib olishni amalga oshirmaslik, hamda o'z uskunalariidan foyda olish uchun foydalanmaslik, shu jumladan uni kabel televideniyesi yoki boshqa televideniye tarmog'iga ulash yo'li bilan, hamda Abonent uskunalariidan ushbu Shartnoma bilan nazarda tutilmagan maqsadlarda foydalanmaslik.

5.3.11. Unga berilgan shaxsiy identifikatsiya ma'lumotlarining maxfiylikini saqlash.

5.3.12. Proвайder ofisida tegishli rasmiylashtiruvsiz Abonent uskunasi uchun shaxslarga bermaslik.

5.3.13. Uskunalar/identifikatsiya ma'lumotlari yo'qolganligi, o'g'irlanganligi, topshirilganligi yoki boshqacha tarzda chiqib ketganligi haqida Proвайderni yozma ravishda xabardor qilgunga qadar, Abonent ulardan ruxsatsiz foydalanish xavfini o'z zimmasiga oladi.

5.4. Abonent huquqlari:

5.4.1. Mazkur Shartnoma bilan nazarda tutilgan Xizmatlar va Qo'shimcha xizmatlardan foydalanish.

5.4.2. O'z Shaxsiy hisob raqami holati haqida ma'lumot so'rash, Xizmatlar bo'yicha Proвайder ofisi, Sayti yoki Call-Center orqali maslahat olish, mazkur Shartnoma bilan nazarda tutilgan boshqa huquqlardan foydalanish. So'rov berilganda, Abonent o'z abonent ma'lumotlarini taqdim etishi kerak: Shaxsiy hisob raqami (ID) yoki Abonent uskunasi raqami.

5.4.3. Proвайderga mazkur Shartnomaga asosan Proвайder majburiyatlarining bajarilishi bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq e'tirozlar bildirish.

5.4.4. Abonent ikki va undan ko'p nuqtalarni ulagan taqdirda, barcha tuzilgan Shartnomalar bo'yicha Shaxsiy raqamlarni birlashtirish.

5.4.5. Telekanallar Paketini almashtirish, Proвайder ofislarida yoki Shaxsiy kabinet orqali Ariza rasmiylashtirish yo'li bilan joriy kalendar oyi tugashidan kamida 3 (uch) ish kuni avval Ommaviy oferta kelishuvini Abonent shartnomasiga o'zgartirish. Xizmat narxi Proвайder Saytida ko'rsatilgan. O'zgartirishlar, Abonentning ijobiy balansi mavjudligi sharti bilan, keyingi kalendar oyining birinchi sanasidan kuchga kiradi.

5.4.6. Qo'shimcha xizmat orqali "**Vaqtinchalik o'chirish**", 12 kalendar oyi muddatgacha Abonent to'lovini hisoblamagan holda Xizmat taqdim etilishini to'xtatib turish. Xizmat narxi Proвайder Saytida keltirilgan. Mazkur xizmatdan foydalanish uchun, Abonentning ijobiy balansi mavjudligida xizmatdan foydalanish rejalashtirilayotgan oydan 3 (uch) oy oldin Proвайder manziliga yozma ariza jo'natish kerak, Telegram-bot orqali buyruq berib yoki saytda Shaxsiy kabinet orqali yoki Call-Centerga murojaat qilib rasmiylashtirish kerak. Ariza taqdim etilmasa yoki u ko'rsatilgan muddatdan kechroq topshirilsa, abonent to'lovi umumiy shartlarda hisoblanadi va qayta hisoblanmaydi. Agar "**Vaqtinchalik o'chirish**" xizmatidan foydalanayotgan Abonent Proвайder xizmatlarini muddatidan avval faollashtirishni istasa, Abonent Xizmatdan foydalanish sanasidan qat'iy nazar, joriy oy uchun abonent to'lovini to'liq hajmda to'laydi.

5.4.7. 8.2-bandga muvofiq Proвайder bilan Shartnomani bekor qilish.

5.4.8. Xizmatlardan sutkada 24 (yigirma to'rt) soat, haftada 7 (yetti) kun davomida foydalanish, Proвайder va ko'rsatuvchilar tomonidan rejali profilaktika va reglament ishlarini bajarish uchun tanaffuslar bundan mustasno. Ularning bajarilishi to'g'risida ma'lumot Proвайder Sayti va/yoki "chopar satr" orqali e'lon qilinadi.

5.4.9. Abonent Proвайderdan sotib olingan tegishli sifatdagi abonent uskunasi, agar u ish holatida, tovar ko'rinishi va o'rami saqlangan bo'lsa, 10 (o'n) kalendar kun ichida almashtirish yoki qaytarish huquqiga ega.

Almashtirish uchun o'xshash tovar mavjud bo'lmagan taqdirda, Abonent o'zining pasportining asl nusxasi va to'lovni tasdiqlovchi hujjat mavjud bo'lgan taqdirda, Proвайderga taqdim etilgan arizaga muvofiq uskuna uchun to'langan pul mablag'larini qaytarib olish huquqiga ega.

6. TARAFLAR JAVOBGARLIGI

6.1. Proвайder televideniye signalining sifatini amaldagi standartlarga muvofiq ta'minlaydi va o'z majburiyatlarini bajarish uchun, mazkur Shartnoma bilan nazarda tutilgan tartib va shartlarga hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

6.2. Mazkur Shartnoma bo'yicha Qo'shimcha xizmatlar (Qo'shimcha telekanallar paketidan tashqari) Proвайder aybi bilan o'z vaqtida ko'rsatilmagan taqdirda, Proвайder Abonentga har bir kechiktirilgan kun uchun ko'rsatilmagan Qo'shimcha xizmatlar hajmining 0,5% miqdorida, ammo ko'rsatilmagan Xizmat qiymatining 50% dan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

6.3. Qo‘shimcha xizmatlar (Qo‘shimcha telekanallar paketidan tashqari) va/yoki Sarflanadigan materiallar uchun o‘z vaqtida to‘lov amalga oshirilmasa, Abonent Provayderga har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to‘lovning 0,4% miqdorida, ammo kechiktirilgan to‘lovning 50% dan oshmagan miqdorda penya to‘laydi.

6.4. Abonent Provayder xizmatlari uchun to‘lovlarni to‘g‘ri amalga oshirilishi uchun javobgar hisoblanadi. Noto‘g‘ri Shaxsiy hisob raqamga to‘langan mablag‘larning qolgan qismi o‘tkazilishi, mazkur Shartnomaning 4.12-bandiga asosan amalga oshiriladi.

6.5. Provayder quyidagilar uchun javobgar bo‘lmaydi:

6.5.1. Abonent uskunolari nosozligi yoki Abonent uni noto‘g‘ri foydalanganligi oqibatida, hamda Provayderga bog‘liq bo‘lmagan boshqa sabablarga ko‘ra televideniye signalining sifatsizligi.

6.5.2. Televideniye dasturlari mazmuni;

6.5.3. Uskunalar, dasturiy ta‘minot almashirilishi yoki Provayderning texnik tizimlarining ish qobiliyatini saqlash va rivojlantirish zaruriyati bilan bog‘liq holda o‘tkazilayotgan ishlar vaqtida Xizmat taqdim etilishi qisman yoki to‘liq to‘xtatilganligi;

6.5.4. Elektr tarmog‘ida kuchlanish, harorat rejimi, Abonentning televizor uskunasi texnika talablariga javob bermasligi kabi foydalanish uchun normal sharoitlar mavjud emasligida, tasvir sifati yomonligi.

6.5.5. Abonent uskunolari ishdan chiqishi;

6.5.6. Abonent tomonidan mazkur shartlari bajarilmaganligi;

6.5.7. Operator tomonidan signalni uzatish standartini o‘zgartirilishiga;

6.5.8. Dasturlar jadvali o‘zgarishi yoki asosiy va/yoki qo‘shimcha telekanallar paketida u yoki bu kanal namoyish etilishi tugatilganligi (to‘xtatilganligi);

6.5.9. Abonent uskunolari mustaqil va/yoki uchinchi shaxslar tomonidan o‘rnatilgan bo‘lsa, televideniye signali sifatli qabul qilinmasligi;

6.6. Peniya to‘lash tomonlarni ushbu Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

6.7. Tomonlarning ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq qo‘llaniladi.

6.8. Tomonlar O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarining korrupsiyaga qarshi me‘yorlariga rioya qilishi va obuna shartnomasi bo‘yicha ularning huquqlari yoki majburiyatlari bilan bog‘liq normalarini buzishi mumkin bo‘lgan har qanday xatti-harakatlarni amalga oshirmaslikka, shu jumladan (cheklamagan holda) jismoniy yoki yuridik shaxslarga, tijorat tashkilotlariga, davlat va boshqaruv organlari, davlat xizmatchilari, nodavlat yuridik shaxslar va ularning vakillariga noqonuniy to‘lovlarni, naqd pul yoki boshqa shakldagi poralarni taklif qilishni, ruxsat berish va va‘da berish kabi harakatlarni amalga oshirmasligi lozim.

Tomonlardan biri tomonidan ushbu bandning birinchi xatboshisida ko‘rsatilgan majburiyatlar buzilgan taqdirda, boshqa taraf shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga haqlidir. Ushbu bandga muvofiq Abonent shartnomasi bekor qilingan taqdirda Tomonlar bir-biriga ziyon/zararni qoplamaydi (ko‘rsatilgan xizmatlar haqqi yoki Abonent to‘lovi bo‘yicha Abonent majburiyatlari bundan mustasno).

7. FORS-MAJOR

7.1. Taraflar mazkur Shartnoma imzolanganidan so‘ng engib bo‘lmas kuchga ega vaziyatlar oqibatida o‘z majburiyatlarini bajarmasa yoki qisman bajarmasa, ular javobgarlikdan ozod etiladi. Bunday holatlarga, jumladan, quyidagilar kiradi: tabiiy ofatlar, tabiiy va sanoat fojialar, terroristik harakatlar, harbiy harakatlar, fuqaroviy g‘alayonlar, davlat hokimiyati organlari yoki mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan mazkur Kelishuv bo‘yicha Taraf faoliyatiga nisbatan cheklov yoki taqiqlov mavjud qarorlar qabul qilinishi, sun‘iy yo‘ldoshdan signal darajasi pasayishi yoki yo‘qolishi, hamda oldindan bilib bo‘lmaydigan va bartaraf qilib bo‘lmaydigan boshqa holatlar.

7.2. Mazkur Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarishga to‘sqinlik qiladigan engib bo‘lmas kuchga ega vaziyatlar vujudga kelganda, Taraflar o‘z majburiyatlarini bajarish muddati bunday vaziyatlar muddati hamda ularning oqibatlarini bartaraf etish uchun zarur muddatga, ammo 60 (oltmish) kalendar kunidan ortiq bo‘lmagan muddatga kechiktiriladi. Engib bo‘lmas kuchga ega holatlar ko‘rsatilgan muddatdan ortiq davom etsa yoki ular vujudga kelganda Taraflarga ushbu muddatdan ortiq davom etishi aniq bo‘lsa, Taraflar mazkur Shartnomani boshqa yo‘l bilan bajarish ehtimolini muhokama qilishga yoki zararlarni qoplamagan holda uni bekor qilishga rozilik bildiradilar.

8. SHARTNOMA AMAL QILISH MUDDATI, UNGA O‘ZGARTIRISH KIRITISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

8.1. Mazkur Shartnomaning shartlari Abonent tomonidan aksept qilinganidan so‘ng kuchga kiradi va Taraflar uni bekor qilguncha yoki tugatmaguncha amal qiladi.

8.2. Abonent ushbu Shartnomani bir tomonlama tartibda, Provayderga berilgan yozma ariza asosida, pasportning asl nusxasini taqdim etgan holda bekor qilishga haqli. Bunda shartnoma Provayderga ariza berilgan sanadan oldin bo‘lmagan muddatda Abonent bilan bekor qilinadi.

Foydalanilmagan davr uchun oldindan to‘langan summa Abonentga uning yozma talabiga ko‘ra 15 (o‘n besh) kun ichida qaytariladi. "Ulanish" xizmati uchun kiritilgan pul mablag‘lari qaytarilmaydi.

8.2.1. Mazkur shartnoma bekor qilinganidan keyin, 8.2-band asosida tugatilganidan so‘ng, u qayta tiklanmaydi Abonentning Shaxsiy hisob raqamiga pul mablag‘lari tushishi, Provayder Xizmatlarini tiklash uchun asos bo‘lmaydi. Abonent Provayder Xizmatlaridan foydalanish uchun yangi Shartnoma tuzishga haqli.

8.3. Agar Abonent tomonidan Xizmat to‘lovlari to‘lanmaganligi sababli bloklangan bo‘lsa, shu kundan boshlab keyingi 12 (o‘n ikki) kalendar oy ichida Xizmatdan foydalanish huquqini beruvchi hech qanday harakatlarni amalga oshirmasa, Abonent bilan tuzilgan shartnoma Provayder tomonidan bekor qilinishi mumkin.

Bekor qilingan shartnoma bo‘yicha kreditorlik qarzi vujudga kelgan taqdirda, Abonent summani qaytarish yoki summani boshqa amaldagi shartnomaga o‘tkazish to‘g‘risida ariza rasmiylashtirish huquqiga ega.

8.3.1. Shartnomaning 8.3-bandiga muvofiq bekor qilingan shartnomalar bekor qilingan sanadan boshlab 6 (olti) yil o‘tgach qayta tiklanmaydi. Abonent Provayder xizmatlaridan foydalanish uchun yangi abonent shartnomasini tuzishga haqli.

8.4. Quyidagi holatlarda Provayder Abonentga jarimalar to‘lamasdan va ishlatilmagan pul mablag‘larini qaytarmasdan mazkur Shartnomani bir tomonlama bekor qilishi mumkin:

- 8.4.1.** Abonent tomonidan Abonent uskunalariga texnik ta'sir ko'rsatgani uchun;
- 8.4.2.** Abonent tomonidan, ruxsatsiz uchinchi shaxslarga xizmatlardan foydalanishga qaratilgan harakatlar uchun.
- 8.5.** Provayder faoliyati tugatilganda, Shartnoma bekor qilinadi.
- 8.6.** Abonent uskunalarini o'rnatish uchun texnik yoki boshqa imkoniyat bo'lmasa, Shartnoma bekor qilinadi, pul mablag'lari 15 bank ish kuni ichida qaytariladi.
- 8.7.** Provayder ushbu Shartnoma shartlariga bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish huquqiga ega bo'lib, ular kuchga kirishidan 15 (o'n besh) kun oldin Provayder veb-saytida e'lon qilinadi va/yoki "chopar satr" orqali. Abonent yangi shartlar va o'zgarishlarni qabul qilishdan bosh tortgan va rozi bo'lmagan taqdirda, Abonent 8.2-bandga muvofiq Shartnomani bekor qilishi mumkin.

Xizmatdan foydalanishni davom ettirish, Abonentning ushbu o'zgarishlarni so'zsiz qabul qilishi va roziligi hisoblanadi.

9. NIZOLARINI HAL QILISH

9.1. Mazkur Shartnomani bajarishda vujudga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar imkon qadar Taraflar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Taraflar o'rtasida o'zaro kelishuvga erishish imkoni bo'lmasa, vujudga kelgan nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq sudga ko'rib chiqiladi.

10. YAKUNIY SHARTLAR

- 10.1.** Abonent mazkur Shartnomani tuzish vaqtida Xizmat taqdim etilishining barcha shartlari, shu jumladan Provayderning raqamli televideniye signalini qabul qilish texnik imkoniyatlari mavjud Hudud haqida, amaldagi tariflar to'g'risida xabardor qilinganligini va Abonentga Xizmatlarni taqdim etish to'g'risida to'liq bo'lmagan ma'lumot berilgani bilan bog'liq e'tirozlar Provayderga nisbatan yo'qligini tasdiqlaydi.
- 10.2.** Provayderning Qo'shimcha xizmatlariga (Qo'shimcha telekanallar paketidan tashqari) kafolat muddati bajarilgan ishlar dalolatnomasi imzolanganidan so'ng 1 (bir) kalendar oy deb belgilanadi. Mazkur muddat ichida Abonent aybi bilan nosozliklar vujudga kelsa, Provayder mutaxassislarini chaqirish, ularni chaqirish kunida amalda bo'lgan tarif bo'yicha to'lanadi.
- 10.3.** Abonent qurilmalari bo'yicha kafolat, ishlab chiqaruvchi tomonidan o'rnatiladi. Abonent uskunalariga Servis xizmatlar ko'rsatish to'g'risida ma'lumotlarni Provayder ofislari, rasmiy veb-sayti yoki Call-Center orqali bilib olish mumkin.
- 10.4.** STB qurilmasi uchun kafolat muddati Abonent tomonidan Xizmatlar (Ulanish va abonent to'lovi) uchun to'lovlarni amalga oshirgan kundan boshlab 12 oy muddatga belgilanadi.
- 10.5.** CAM modul uchun kafolat muddati Abonent tomonidan Xizmatlar (Ulanish va abonent to'lovi) uchun to'lovlar amalga oshirilgan kundan boshlab 1 oy muddatga belgilanadi.
- 10.6.** Abonent qurilmalariga qo'shimcha servis xizmatlar bo'yicha kafolat muddati tomonlarning bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab 1 oy etib belgilanadi. Abonent/foydalanuvchining aybi bilan kafolat davri mobaynida nosozliklar yuz berganda, servis xizmatlar amaldagi tariflarga muvofiq to'lanadi.

PROVAYDER REKVIZITLARI:

«Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi» MChJ
Pochta manzili: 100202, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, A.Temur ko'chasi, 109A-uy.
Hisob raqami: 20208000800155269003, Bank: AT «ALQABANK», Toshkent sh., MFO: 00401
STIR: 200625403, IFUT: 60200

✉ info@crdt.uz, crdt@exat.uz, www.crdt.uz
☎ (+998)78 1299000, 1065

! Mazkur Shartnomani qabul qilish bo'yicha harakat yoki quyida keltirilgan rekvizitlar bo'yicha to'lov qilish, Siz mazkur Shartnoma shartlarini biror bir istisnosiz va/yoki cheklovsiz to'liq va shartsiz qabul qilganingizni bildiradi.